QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURULISH UNIVERSITETI

ALIMARDONOV ASROR ALIMARDONOVICH

OLIY TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

UO‘K: 378.091:005-048.32(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертatsiи доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in economic sciences

Alimardonov Asror Alimardonovich
Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish …..….....3

Алимардонов Асрор Алимардонович
Совершенствование механизмов управления высшими образовательными учреждениями.....…...……..…….....27

Alimardonov Asror Alimardonovich
Improving the management mechanisms of higher education institutions ……..55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....59

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURULISH UNIVERSITETI

ALIMARDONOV ASROR ALIMARDONOVICH

OLIY TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Iqt6634 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Toshkent arxitektura – qurulish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Metyakubov Azamat Djumanazarovich** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ochilov Akram Odilovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Saidov Mash’al Samadovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.11.03-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “ 31 ” 10 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (487-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ 17 ” 10 kuni tarqatildi.
(2026-yil “ 17 ” 10 dagi 32 -raqamli reyestr bayonnomasi).

D.X. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi kengash raisi, i.f.d., professor

G‘.A. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida yuz berayotgan o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimida ham chuqur transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, ta’limning boshlang‘ich bosqichiga investitsiyalarning kutiladigan qaytimi o‘rtacha 10 foizni, o‘rta ta’lim bo‘yicha 7 foizni, oliy ta’lim bo‘yicha esa 17 foizni tashkil etadi.[1] Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini barqaror rivojlantirish, ularning nufuzi va raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim xizmatlarini iste’molchilar ehtiyojlariga moslashtirish hamda ta’lim sifatining barqaror kafolatini ta’minlaydigan uzoq muddatli boshqaruv choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida oliy ta’lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirish, ta’lim xizmatlarini raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv modellari va mexanizmlarini ishlab chiqish, sifat menejmenti hamda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini kuchaytirish, ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatini oshirish, innovatsion ishlanmalarni yaratish va tijoratlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarni oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga keng tatbiq etish zarurati kuchaymoqda.[2]

Yangi O‘zbekistonda raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish va aholi farovonligini oshirishda ta’lim, xususan, oliy ta’lim muassasalari salohiyatidan samarali foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish va oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish vazifalari belgilangan .[3] Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tizimli tahlil qilish, istiqbolli rejalashtirishda resurs komponentlarini integral baholash, boshqaruv jarayonidagi ta’lim risklarini aniqlash, innovatsion va kadrlar salohiyatini boshqarish hamda ta’lim sifatini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 3-iyuldagi

[1] World Bank. Tertiary Education. Ta’lim darajalari bo‘yicha daromadlilik ko‘rsatkichlari.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.

PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi .

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, strategik boshqaruv, institutsional transformatsiya, innovatsion rivojlanish, ta’lim sifati menejmenti hamda universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish masalalari xorijlik olimlar G.S.Becker, P.F.Drucker, M.E.Porter, S.Brown, R.Pill, S.Brenda, J.Radford, K.Raaheim, R.Williams, P .Vries, P.G.Altbax, L.Reyzberg, L.YE.Rambley, J.Zakiye, A.Saks, V.Ryuj, G.Duda, Y.Vissema, S.Teylor, M.Rayan, J.Pirs, J.M.Sayz-Alvarez, A.Galan, M.Gonsalez-Galan, P.Rodrigez-Patron[4] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

MDH olimlaridan ushbu sohada L.V.Sikorskaya, V.P.Tixomirov, R.A .Fatxutdinov, Ye.V.Maksimova, D.A.Konoplyanskiy, A.A.Borisova, A.Yu .Timofeeva, A.Povalko, N.P.Korjavina, V.A.Leongardt, O.A.Chikova, G.A .Bulatova, O.V.Kirjbaum, V.N.Belkin, N.A.Belkina, L.B.Vladыkina, L.Nizova, I .Soloveva, L.Yu.Salnikova[5] va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

---

[4]Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press.; Drucker, Peter F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row Publishers, 1973. – 839 p.; Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – p. 71–73.; Brown S., Pill R., Brenda S. 500 Tips for Quality Enhancement in Universities and Colleges. London: Kogan Page, 1997. – p. 164.; Radford J., Raaheim K., Williams R., de Vries P. Quantity and Quality in Higher Education. London and Bristol, Pennsylvania: Jessica Kingsley Publishers, 1997.– p. 196.; Philip G. Altbach, Liz Reisberg, Laura E. Rumbley (2009). Trends in Global Higher Education: Trasking an Academic Revolution. A report prepared for the UNESCO 2009. Vorld Conference on Higher Education. – p.10.; Zakie J., Saks A. Job search and social cognitive theory: the role of career-relevant activities // Journal of Vocational Behavior. 2009. Vol. 74. P. 117–127.; Ruegg W. A History of the University in Europe // EuropeanHistory Quarterly, 2008. №1. P. 185-187.; Дуда Г. Введение к меморандуму Вилгелма фон Гумболдта «О внутренней и внешней организatsii высших научных заведениев Берлине» // Университетское управление: практика и анализ. 1998.№3. – С. 24-27.; Виссема, Й. Университет третего поколения / Й. Виссема. ¬–М.: Олимп-Бизнес, 2016. –480 с.; Taylor S., Ryan M., Pearce J. Enhanced student learning in accounting utilising web-based technology, peer-review feedback and reflective practices: a learning community approach to assessment // Higher Education Research and Development. 2 November. 2015. P. 1251-1269.; Saiz-Alvarez J. M. Some keys for success in higher education: A case approach // Handbook of Research on Higher Education in the MENA Region: Policy and Practice. June 30. 2014.; Galán A., Ángeles González-Galán M., Rodríguez-Patrón P. Faculty evaluation in Spain. The national system and sub-national divergence// Revista de Educacion. 2014. P. 136-164.

[5] Сикорская Л.В. Управление развитием высшего образования. – М.: Экономика, 2012. – С. 64–66.; Тихомиров В.П. Управление качеством образования. – М.: Академия, 2010. – С. 98–101.; Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью ВУЗа. // Высшее образование в России– 2006. – № 9. – с. 37-39.; Максимова Е.В. Развитие конкурентоспособности студента в образователном процессе университета: автореф.дис. ...канд.пед.наук. Оренбург, 2005. 14-16 с.; Коноплянский Д.А. Формирование конкурентоспособности выпускника ВУЗа в процессе обучение: рол государственно-частного партнерства. Вестник КемГУКИ 33/2015.-179 с.; Борисова А.А., Тимофеева А.Ю. Конкурентоспособност выпускников ВУЗов: факкторы-детерминанты и методика диагностики / «ВУЗы и кадровый потенциал региона», №2, 2017. – С. 89-101.; Повалко А. Программа повышения конкурентоспособности вузов // Образование: цели и перспективы. 2015.

Oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarish, strategik rejalashtirish, universitetlarning bozor muhitiga moslashuvi va raqobat ustunliklarini shakllantirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari K.X.Abduraxmanov, D.N.Raximova, O.K.Abduraxmanov, N.K.Zokirova, X.O‘.Umarova, M.X.Saidov, A.Sh.Bekmurodov, T.Z.Teshaboev, A.O.Ochilov, O.A.Ergashev, O.S.Qahhorov, X.X. Rejapov, N.R.Raxmonov, M.A.Karimov, Sh .Sh.Zaxidova, B.I.Adizov[6] kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini akc ettirsa-da, biroq bugungi kunda ta’lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini integratsiyalash, universitet–sanoat hamkorligini rivojlantirish hamda inson kapitalini shakllantirishda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqaruv nuqtai nazaridan rolini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmaganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, mazkur tadqiqot mavzucining tanlanishi, uning maqcadi va aniq vazifalarini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot rejalari doirasida bajarilgan.

– С. 91.; Коржавина Н.П., Леонгардт В.А., Чикова О.А. Конкурентоспособност ВУЗов на рынке образовательных услуг и рынке труда: взаимосвяз компонентов и показателей / Педагогическое образование в России. №8, 2016. – С. 144-147.; Булатова Г.А. Мониторинг и оценка трудоустройсва выпускников вузов // Экономика Профессия Безнес. 2017. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/monitoring-i-otsenka-trudoustroystva-ypusknikov-vuzov; Киржбаум О.В. Повышение конкурентоспособности выпускников ВУЗов на рынке труда: организатsионный аспект. Автореферат диссертатsии на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Омск: ОГУ, 2007. – С. 11.; Белкин В.Н., Белкина Н.А., Владыкина Л.Б. Формирование конкурентоспособного человеческого капитала предприятия. – Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2010. – 132 с.; Низова Л., Соловева И. Рынок труда и рынок образовательных услуг // Человек и труд. – 2008. – №12. –С 147.; Салникова Л.Ю. Механизм повышения конкурентоспособности выпускников высших учебных заведений // Социально-экономической развитие России в нестабилном мире: натsионалные, регионалные и корпоративные особенности: материалы XXVI международной научнопрактической конференции: в 3 ч. / Урал. соц.-экон. ин-т АТиСО. – Челябинск, 2009. – Ч. II. – С. 147–149.

[6] Абдурахманов К.Х., Додобоев Ю.Т., Аллахвердиева Л.М. Современный менежмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, РЭА, - 2006. -7 с.; Рахимова Д.Н., Абдурахманов О.К., Зокирова Н.К. Образовательный маркетинг и рынок труда. -М.: «Сов.писател», 2005. –С. 113-114.; Umarova X.O‘. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent.: 2023-yil. -153 bet.; Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: Moliya, 2002. – 169 b.; Бекмуродов А.Ш. Информатsинно-ресурсное обеспечение высшего экономического образования: методика, содержание и техническое обеспечение. – Тошкент: Экономика, 2009. – 205 б.; Teshaboyev T.Z. Oliy o‘quv yurtlarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘llari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 129 b.; Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: iqt. fan dokt. diss... – Toshkent, 2019. – 244 b.; Ergashev O.A. Ta’lim tizimining iqtisodiy boshqaruv asoslarini takomillashtirish (O‘zbekiston Respublikasi o‘rta-maxsus, kasb hunar tizimi misolida). I.f.d.dis. avtoref.:-ToshDTU, 2006. –24 b.; Qahhorov O.S. Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2021. –80-b.; Rejapov X.X.. Oliy ta’lim va mehnat bozori xizmatlari o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning metodologik asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Andijon – 2023. –207-b.; Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. I.f.d. (DSc) ilm. dar. ol. uchun tay. diss. avtoreferati –Toshkent, 2019, 82 b.; Karimov M.A. “Oliy ta’lim tizimida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Andijon – 2025. –222-b.; Zaxidova Sh.SH. Oliy ta’lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O‘zbekiston materiallari asosida). I.f.n. dis. avtoref.: -T.: 2012. -27 b.; Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Buxoro.: – 2022- yil. - 151 bet.

Tadqiqotning asosiy maqsadi: oliy ta’lim muassasalarini boshqarish, sohada innovatsion va kadrlar salohiyatini hamda ta’lim sifatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta’lim muassasalari faoliyati rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari va boshqarish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

oliy ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonlarining xorij tajribalari va modellardan foydalanish afzalliklarini o‘rganish;

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari faoliyatining hozirgi holati va statistik ma’lumotlar dinamikasidagi o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilish;

oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ta’lim risklarini baholash va ularning rivojlanish jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish;

oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga ta’sir etuvchi omillarni baholash;

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishga ta’sir etuvchi omillarning korrelyasion-regression bog‘lanishlari asosida prognozlashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida innovatsion va kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va boshqarish jarayonlari olingan.

Tadqiqot predmeti. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiya ishida vaziyatli baholash, statistik tahlil va baholash, ekspertlar usuli, statistik guruhlash, tizimli tahlil, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimi strategik boshqaruvning ta’lim, ilmiy tadqiqot, innovatsion va xalqaro hamkorlik kabi tarkibiy elementlarini dekompoziyalash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari ta’lim risklarini boshqarishda risk mezonlariga ajratishning amaliy analitik shkalasiga ko‘ra, past risk $R \leq 12$, o‘rta risk $12 < R \leq 16$ va juda yuqori risk $R > 20$ intervallar bo‘yicha toifalash asoslangan;

oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslarini boshqarishda daromad manbalari, kontingent-yuklama, resurs ta’minoti, xarajat barqarorligi hamda natijaviylik va samaradorlik omillarini optimal guruhlash asosida moliyaviy boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi dalillangan;

moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, umumiy talabalar soni, konsolidatsiyalashgan byudjet mablag‘lari orqali moliyalashtirish hajmi va oliy ta’lim muassasalari soni hisobiga oliy ta’lim muassasalari xizmat faoliyatining yalpi hajmining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

institutsional, iqtisodiy, tashkiliy va innovatsion yo‘nalishlarning o‘zaro integratsiyasi asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning ustuvor strategik yo‘nalishlari asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari faoliyatining 2016 - 2025 yillardagi dinamik qator ma’lumotlari tahlil qilingan va soha faoliyatini rivojlanishi bilan bog‘liq resurs komponentlar tahlili amalga oshirilgan;

2020-2025-yillarda Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universiteti faoliyatini boshqarish jarayonidagi ta’lim risklari baholandi va risk mezonlariga ajratishning analitik shkalasiga ko‘ra intervallar bo‘yicha toifalash asoslangan;

Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Toshkent davlat arxitektura-qurilish universitetlarida moliyaviy resurslarni boshqarishga ta’sir etuvchi omillar baholangan va boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi asoslangan;

sub’ekt-kadrlar salohiyatini takror ishlab chiqarishni boshqarish tizimi faoliyatining uch darajali tuzilishi va boshqaruv sub’ektlarining tuzilma ob’ektlariga ta’siri vositalarini koordinatsiyalash asosida Davlat oliy talim muassasalarida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmi takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi rahbariyatning boshqaruv faoliyati, monitoring, tahlil, takomillashtirish , ta’lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida foydalanilgan yondashuv, fikr-mulohazalar, usullar va aniq yo‘nalishdagi nuqtai nazarlarning maqsadga muvofiqligi ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Ta’lim va ilm-fan vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi hamda ilmiy xulosa va takliflarning tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish jarayonlarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar hamda iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish tendensiyalari, hududiy va tarmoq dasturlari talablari hamda mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda optimallashtirish, inson kapitalini bozor talablari asosida rivojlantirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishga qaratilgan strategik va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish jarayonlarida qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Jumladan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar oliy ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida nazarda tutilgan ustuvor vazifalarni hamda oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarini amalga oshirish doirasida tegishli dasturiy va institutsional chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarga o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy -uslubiy manbaa sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimi strategik boshqaruvning ta’lim, ilmiy tadqiqot, innovatsion va xalqaro hamkorlik kabi tarkibiy elementlarini dekompozitsiyalash asosida takomillashtirilishi bo‘yicha ilmiy yangilik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-martdagi 03-10-17-6469-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimini strategik boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish, ta’lim, ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyat va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish imkoniyati yaratildi;

oliy ta’lim muassasalari ta’lim risklarini boshqarishda risk mezonlariga ajratishning amaliy analitik shkalasiga ko‘ra, past risk $R \leq 12$, o‘rta risk $12 < R \leq 16$ va juda yuqori risk $R > 20$ intervallar bo‘yicha toifalash asoslanishi bo‘yicha ilmiy yangilik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-martdagi 03-10-17-6469-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 12 nafar talabaga - 1 nafar professor-o‘qituvchi nisbatan qulay, 12–16 oraliqda yuklama orta boshlaydi (o‘rta risk), 16–20 oraliqda yuklama sezilarli bosim beradi (yuqori risk) hamda 20 dan yuqori - sifatga ta’sir xavfi kuchayishi (juda yuqori risk) aniqlangan;

oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslarini boshqarishda daromad manbalari, kontingent-yuklama, resurs ta’minoti, xarajat barqarorligi hamda natijaviylik va samaradorlik omillarini optimal guruhlash asosida moliyaviy boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi dalillanishi bo‘yicha ilmiy yangilik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-martdagi 03-10-17-6469-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslarini boshqarishda daromad manbalari, kontingent-yuklama, resurs ta’minoti, xarajat barqarorligi hamda natijaviylik va samaradorlik omillarini tizimli ravishda baholash va optimal guruhlash imkoniyati yaratilgan;

moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, umumiy talabalar soni, konsolidatsiyalashgan byudjet mablag‘lari orqali moliyalashtirish hajmi va oliy ta’lim muassasalari soni hisobiga oliy ta’lim muassasalari xizmat faoliyatining yalpi hajmining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari bo‘yicha ilmiy yangilik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-martdagi 03-10-17-6469-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida umumiy sifat darajasi (Darbin-Uotson mezoni 1,87 ga teng) yuqori bo‘lgan chiziqsiz modelga asoslangan, oliy ta’lim muassasalari xizmat faoliyati yalpi hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan, tafovut oralig‘i 0–2,5% diapazonga teng maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi oliy attestasiya komissiyasi e’tirof etgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda hamda 9 ta ma’ruza tezislari ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 177 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob’ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va sohani boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida oliy ta’lim muassasalari faoliyati rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari, oliy ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda davlat oliy ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonlarining xorij tajribalari va modellardan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning globallashuvi va sohalar hamda tarmoqlarining raqamlashuvi sharoitida oliy ta’lim muassasalari jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi strategik institut sifatida yuzaga chiqmoqda. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modellarida oliy ta’lim muassalari faqat ta’lim beruvchi muassasa sifatida emas, balki ilm-fan, innovatsiya va texnologiyalar transferi markazi sifatida qaralmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari bir qator tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlari va strategiyalariga tayanadi. Ushbu mexanizm va faoliyatni rivojlantiruvchi strategiyalar inson kapitali nazariyasi, bilimlar iqtisodiyoti, institutsional iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish nazariyasi hamda strategik boshqaruv mexanizmlarini o‘z ichiga oladi[7].

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, uning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va ta’lim sifati samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy va pedagogik ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar va ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

[7]Xakimova X.X. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalarini boboshqarish strategiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yisha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish ushun taqdim yetilgan dissyertatsiyasi. –Toshkent.: – 2023-yil. -141 bet.

Ta’lim tizimini rivojlantirish, faoliyatini samarali hamda natijador boshqarish masalalari P.Druker, M.Porter kabi mashhur iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha tadqiq etilgan[8].

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari rossiyalik olimlar tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Jumladan, L.V.Sikorskaya oliy ta’lim tashkilotlarini boshqarish mexanizmlarining tizimli tamoyillarini ishlab chiqqan bo‘lib, u boshqaruv tizimida yaxlitlik, ochiqlik, dinamiklik va ierarxiya tamoyillari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi[9].

Shuningdek, G.A.Balixin o‘z tadqiqotlarida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qilgan. U ta’lim muassasalarini boshqarishda innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi[10].

O‘zbekistonlik olimlar ham oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etganlar. Jumladan, A.X.Abduqodirov ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qilgan[11].

Shuningdek, B.Yu.Xodiev ta’lim tizimi iqtisodiyoti va inson kapitalini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. U ta’lim iqtisodiy o‘sish va innovatsion rivojlanishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi[12].

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari N.M. Maxmudov va A.V.Vahobov ishlarida ham tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda bozor mexanizmlari, raqobat muhiti va innovatsion rivojlanish omillari muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan[13].

Oliy ta’lim muassasalari va ularda ta’lim olayotgan talabalar sonining bunday keskin o‘zgarishi respublikada yangi iqtisodiy siyosatning yuritilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonini barcha bo‘g‘inlarida sezilarli darajadagi islohotlarni amalga oshirilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu maqsadda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning institutsional, iqtisodiy, tashkiliy va innovatsion yo‘nalishlarini qamrab oluvchi strategik yo‘nalishlari shakllantirildi (1-rasm).

[8] Drucker, Peter F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row Publishers, 1973. – 839 p.; Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – p. 71–73.

[9] Сикорская Л.В. Управление развитием высшего образования. – М.: Экономика, 2012. – С. 64–66.

[10] Балыхин Г.А. Управление развитием образования: организационно-экономический аспект. – М.: Экономика, 2003. – 427 с.

[11] Абдуқодиров А.Х. Таълим менежменти. – Т.: Фан, 2005. – Б. 72–75.

[12] Ходиев Б.Ю. Инновацион иқтисодиёт. – Т.: Iqtisodiyot, 2015. – В. 134–136.

[13] Ваҳобов А.В., Махмудов Н.М. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2019. – Б. 215–218.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari[14]

Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari shundaki, bunda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda ularning iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishiga ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq boshqaruv, tashkiliy, iqtisodiy va institutsional instrumentlar tizimidir.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlanish strategiyasi birinchi navbatda oliy ta’limni modernizasiyalashdagi samaradorlik ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lib, bu oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligiga bevosita ijobiy ta’sirini ifodalaydi (2-rasm).

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish mexanizmidan ko‘rinib turibdiki, mazkur tizim universitet faoliyatini samarali tashkil etish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq elementlar majmuasidan iborat. Unda institutsional, tashkiliy, iqtisodiy va innovatsion mexanizmlar o‘zaro uyg‘un holda amal qilib, ta’lim muassasalarining strategik rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xususan, institutsional mexanizmlar universitetlar faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilasa, tashkiliy boshqaruv mexanizmlari ta’lim, ilmiy tadqiqot va boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy mexanizmlar moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb qilish va ta’lim xizmatlarining barqarorligini ta’minlash imkonini yaratadi. Innovatsion mexanizmlar esa ilmiy tadqiqotlar, texnologik yangiliklar va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali universitetlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi[15].

[14] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

[15] Altbach, Philip G., Reisberg L., Rumbley L. Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. – Paris: UNESCO Publishing, 2009. – 278 p.



2-rasm. Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv mexanizmlarining tarkibiy elementlari[16]

Shu nuqtai nazardan, mazkur boshqaruv mexanizmi oliy ta’lim muassasalari faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olgan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘lib, uning samarali amal qilishi universitetlarning ta’lim sifati, ilmiy salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida jahondagi oliy ta’lim faoliyatini boshqarish nuqtai nazaridan katta tajribaga ega bo‘lgan va yuqori samaradorlikka erishgan mamlakatlar tajribasi o‘rganildi hamda ularning soha faoliyatini boshqarish bo‘yicha modellari ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Xorijiy mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish bo‘yicha shakllangan tajribalar hamda raqobatbardoshlikni oshirish modellaridan hududiy va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda milliy oliy ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida foydalanish mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yaxshilash borasidagi tadbirlarning samaradorligini oshirishda foydali bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim muassasalari faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va faoliyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari faoliyatining hozirgi holati va statistik ma’lumotlar dinamikasidagi o‘zgarish tendensiyalari, oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ta’lim risklarini baholash va ularning rivojlanish jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish hamda oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga ta’sir etuvchi omillarni baholash amalga oshirilgan.

Jahon mamlakatlarining rivojlanish tendensiyalari turli mamlakatlarning taraqqiyot darajasi ushbu mamlakatlardagi ta’lim tizimi, xususan oliy ta’lim tizimidagi rivojlanish darajasiga mos holda o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatadi. Chunki XX asrning oxirigacha bo‘lgan davrda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi

[16] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

ma’lum bir kechikish (oliy ta’lim tizimiga qabul qilingan mutaxassislarning bitirishigacha bo‘lgan davr) bilan amalga oshgan bo‘lsa, bugungi innovasion rivojlanish sharoitida bu kechikish davri minimallashib bormoqda, ya’ni mutaxassislar tayyorlash jarayonining innovasiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etilishi bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshirilayotganligi mamlakatlar, ularning iqtisodiyot tarmoq va sohalarining yangi mutaxassislar faoliyati orqali juda tez o‘zgarishlarga yuz tutmoqda.

Oxirgi 10 yil davomida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar ungacha bo‘lgan davrdagi o‘zgarishlardan ko‘ra ko‘proq rivojlanishga erishilayotganligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining 2016 - 2025 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishi[17] (o‘quv yili boshiga)

Ko‘rsatkichlar	O‘quv yili								
	2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024	2024/ 2025
Oliy ta’lim muassasalari soni, birlik	70	72	98	119	127	154	191	213	219
Shu jumladan: xorijiy oliy ta’lim muassasalari soni, birlik	x	x	1	4	5	17	42	91	99
Oliy ta’lim muassasalaridagi talabalar soni, ming kishi	268,3	297,7	360,2	441,0	575,1	808,4	1042,1	1300,2	1432,9
Shundan: kunduzgi ta’lim shaklida	267,9	287,5	313,0	360,1	441,9	553,9	622,6	834,1	707,287
sirtqi ta’lim shaklida	0,4	10,2	46,0	73,6	118,1	228,0	381,8	424,7	673,424
kechki ta’lim shaklida	x	x	1,2	7,3	11,5	26,5	37,7	41,4	52,099
10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan OTM talabalari soni, kishi	84	93	110	130	165	229	289	293	385
Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	57,7	80,8	108,7	128,7	165,0	220,1	275,5	301,2	378,8
Oliy ta’lim muassasalarini bitirgan talabalar soni, ming kishi	64,1	67,4	70,3	70,8	83,9	103,9	102,4	146,4	211,3

2016/2017–2024/2025 o‘quv yillari davomida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari tizimidagi asosiy ko‘rsatkichlar keskin o‘sganini ko‘rsatadi. Eng avvalo, oliy ta’lim muassasalari soni 2016/2017 o‘quv yilidagi 70 tadan 2024/2025 o‘quv yilida 219 taga yetgan. Bu davrda OTMlar soni qariyb 3 barobardan ko‘proq oshganini anglatadi. Shu jumladan, xorijiy oliy ta’lim muassasalari soni 2018/2019 o‘quv yilida 1 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yiliga kelib 99 taga yetgan. Bu esa mamlakatda xalqaro ta’lim hamkorligi va filiallar tarmog‘i tez sur’atlarda kengayganini ko‘rsatadi.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldagi eng muhim tendensiyalardan biri - oliy ta’lim muassasalaridagi talabalar sonining barqaror o‘sishidir. Jami talabalar soni 2016/2017 o‘quv yilida 268,3 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yilida 1432,9 ming nafarga yetgan. Demak, talabalar kontingenti taxminan 5,3 barobarga oshgan. Bu holat oliy ta’lim qamrovining kengayishi, qabul kvotalarining oshirilishi va yangi OTMlar tashkil etilgani bilan izohlanadi.

Globallashuv sharoitida oliy ta’lim xizmat ko‘rsatish sohasidagi ob’ektiv ehtiyoj hisoblanadi. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, davlat oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ta’lim risklarini baholash va qabul qilishda mustaqilligini oshirmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ta’lim risklari va ularning tahliliy tayyorgarligini ilmiy asosda tashkil etish rivojlanish strategiyalarini bashorat qilish imkonini beradi. Boshqaruv qarorlarining qanchalik samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan oliy ta’lim muassasasidagi boshqaruv jarayoni va uning natijalarini o‘z vaqtida, har tomonlama baholash bilan bog‘liq. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashda zamonaviy usul va uslublarni qo‘llash talab etiladi.

2020-2025 yillar davomida Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universiteti faoliyatini boshqarishda ta’lim risklarini baholash, avvalo, talabalar kontingentining o‘sishi va professor-o‘qituvchilar tarkibi (PO‘) imkoniyatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni tahlil qilishga tayanadi. Mazkur yondashuvda ta’lim riskining asosiy ko‘rsatkichi sifatida talaba/PO‘ nisbati qabul qilinib, u ta’lim jarayonidagi o‘quv yuklamasi zichligi, individual ishlash imkoniyati, akademik maslahat berish sifati va nazorat jarayonlariga ta’sir qiluvchi boshqaruv omillarini ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval

2020-2025 yillarda Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetini boshqarishda ta’lim risklarini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar[18]

Yillar	SamDU jami talabalar	SamDU PO‘soni	SamDU qabul	SamDU bitiruvchilar	QarDU jami talabalar	QarDUPO‘ soni	QarDU qabul	QarDU bitiruvchilar
2020	26 800	1 720	7 200	5 900	22 400	1 420	6 000	4 800
2021	29 500	1 760	7 800	6 100	24 700	1 460	6 500	5 000
2022	32 400	1 820	8 400	6 400	27 300	1 520	7 200	5 300
2023	35 600	1 900	9 100	6 900	30 100	1 590	7 900	5 700
2024	38 900	1 990	9 800	7 300	33 000	1 670	8 500	6 100
2025	42 300	2 080	10 400	7 800	36 200	1 760	9 100	6 500

Ta’lim risklari hisob-kitobida talaba/PO‘ nisbati (ya’ni 1 nafar professor-o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni) oliy ta’lim muassasasidagi akademik yuklama va ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi muhim indikator sifatida qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkichning ortishi professor-o‘qituvchilarning o‘quv, uslubiy va tarbiyaviy yuklamasi oshib borishini, natijada talabalar bilan individual ishlash

[18] Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetining 2020-2025-yillardagi hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

imkoniyatlari qisqarishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, talaba/PO‘ nisbati yuqori bo‘lgan sharoitda ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalar o‘zlashtirishini doimiy monitoring qilish va kompetensiyalarni chuqur shakllantirish samaradorligi pasayish riski yuzaga keladi.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, yuqoridagi jadval asosida ta’lim risklari hisob-kitobi (talaba/PO‘) amalga oshirildi:

$$R = \frac{S}{P}$$

bu yerda: S - jami talabalar; P - PO‘ soni.

Bu ikki davlat oliy talim muassasalari qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsa (SamDU, QarDU) 2020–2025 yillarda:

- talabalar soni o‘sishi PO‘ o‘sishidan tezroq;
- shu sababli talaba/PO‘ nisbati ortib borgan;

Ushbu uslubiyotdan kelib chiqib, mazkur tendensiya oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni bilan bog‘liq o‘quv yuklamasi riskining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Chunki talabalar sonining professor-o‘qituvchilar soniga nisbatan tezroq o‘sishi natijasida professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keladigan o‘quv yuklamasi ortib boradi, bu esa ta’lim sifati, o‘qitish samaradorligi va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bilan bog‘liq risklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

2025 yil natijalariga ko‘ra qiyosiy tahlil Samarqand davlat universitetida risk ko‘rsatkichi $R \approx 20{,}34$, Qarshi davlat universitetida esa $R \approx 20{,}57$ ni tashkil etganini ko‘rsatdi. Mazkur model asosida Qarshi davlat universitetida risk darajasi Samarqand davlat universitetiga nisbatan biroz yuqori ekani aniqlandi.

Yuqoridagi ikki davlat oliy talim muassasalarida risk dinamikasini hisoblashda ta’lim risklarini baholash jarayonidagi o‘quv yuklamasi riski oldindi:

$$R_t = \frac{S_t}{P_t}$$

Bu yerda:

- R_t - t-yildagi risk koeffitsienti (talaba/PO‘ nisbati);
- S_t - t-yildagi jami talabalar soni;
- P_t - t-yildagi professor-o‘qituvchilar (PO‘) soni.

Mazkur ko‘rsatkich bir nafar professor-o‘qituvchi hissasiga to‘g‘ri keladigan talabalar sonini ifodalaydi. Nisbatning ortib borishi professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keladigan o‘quv yuklamasining zichlashuviga olib keladi, bu esa ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq risk darajasining oshishiga sabab bo‘ladi.

Ta’lim risklarini boshqarish nuqtai nazaridan ularni faqat hisoblash emas, balki belgilangan intervallar bo‘yicha toifalash ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda talaba–professor-o‘qituvchi nisbati asosida analitik shkala qo‘llanildi. Unga ko‘ra risk ko‘rsatkichi quyidagi intervallar bo‘yicha tasniflandi: past risk - $R \leq 12$, o‘rta risk - $12 < R \leq 16$, yuqori risk - $16 < R \leq 20$, juda yuqori risk - $R > 20$. Bunda 12 nafar talabaga 1 nafar professor-o‘qituvchi nisbati nisbatan qulay holatni ifodalaydi; 12–16 oralig‘ida o‘quv yuklamasi ortib boradi (o‘rta risk); 16–20

oralig‘ida yuklama sezilarli darajada oshadi (yuqori risk); 20 dan yuqori holatda esa ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi risk kuchayadi (juda yuqori risk).

Ushbu mezonga ko‘ra, Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetida 2020 yilda risk darajasi o‘rta risk toifasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2021–2024 yillarda u yuqori risk toifasiga o‘tgan, 2025 yilga kelib esa har ikki oliy ta’lim muassasasida juda yuqori risk zonasiga yaqinlashgan (yoki kirgan) holat kuzatilgan. Bu holat oliy ta’lim muassasalari boshqaruvida professor-o‘qituvchilar tarkibini kengaytirish, o‘quv yuklamasini optimallashtirish hamda resurslar balansini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetida mazkur risk toifalarini tasniflaydigan bo‘lsak, Samarqand davlat universitetida quyidagi holat kuzatildi:

- 2020 yilda: 15,58 - $12<R\leq16$ - o‘rta risk;
- 2021 yilda: 16,76 - $16<R\leq20$ - yuqori risk;
- 2022 yilda: 17,80 - yuqori risk;
- 2023 yilda: 18,74 - yuqori risk;
- 2024 yilda: 19,55 - yuqori risk;
- 2025 yilda: 20,34 - $R>20$ - juda yuqori risk.

Qarshi davlat universitetida esa quyidagi holat kuzatiladi:

- 2020 yilda: 15,77 - o‘rta risk;
- 2021 yilda: 16,92 - yuqori risk;
- 2022 yilda: 17,96 - yuqori risk;
- 2023 yilda: 18,93 - yuqori risk;
- 2024 yilda: 19,76 - yuqori risk;
- 2025 yilda: 20,57 - juda yuqori risk.

Mazkur toifalash qat’iy normativ standart hisoblanmaydi, balki ta’lim boshqaruvi tahlili maqsadlarida qo‘llanilgan analitik shkala sifatida qabul qilingan. Agar vazirlik yoki oliy ta’lim muassasalarining ichki normativ hujjatlari mavjud bo‘lsa, ushbu intervallarni tegishli me’yoriy talablar asosida qayta belgilash mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy resurslardan foydalanishga ko‘pincha ularning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadigan turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy sharoitlar, hukumat siyosati va qoidalari, tashkiliy tuzilma, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar va moliyaviy boshqaruv amaliyotlari mablag‘larning mavjudligi va samarali ishlatilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarni tushunish byudjet tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvi va faoliyatini takomillashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Toshkent davlat arxitektura-qurilish universitetlari misolida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari moliyaviy boshqaruvi natijaviyligi bir vaqtning o‘zida daromad manbalari tarkibi, kontingent yuklamasi, resurs taqsimoti, xarajatlarni qoplash darajasi va ta’lim natijadorligi bilan belgilanadi (3-jadval).

3-jadval

Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Toshkent davlat arxitektura-qurilish universitetlarida moliyaviy resurslardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni baholash[19]

Yil	Byudjet mablag‘i (B)		Byudjetdan tashqari tushum (E)		Jami xarajat (X)		Talabalar (S)		Professor-o‘qituvchilar soni (PO’)		Qabul (A)		Bitiruvchi (G)	
	ShDPI	TDAQU	ShDPI	TDAQU	ShDPI	TDAQU	ShDPI	TDAQU	ShDPI	TDAQU	ShDPI	TDAQU	ShDPI	TDAQU
2021	48	95	22	68	66	154	8400	16500	520	980	2400	4800	1550	3100
2022	58	114	28	82	80	186	9600	18100	560	1030	2750	5300	1700	3350
2023	71	136	36	101	101	226	10900	19900	610	1090	3100	5900	1950	3700
202	86	162	47	126	126	276	12300	21800	670	1160	3450	6400	2150	4050
2025	103	191	61	156	154	332	13800	23900	730	1240	3800	7000	2350	4400

Birinchi bosqichda baholash metodikasini ishlab chiqish uchun quyidagi asosiy indikatorlar hisoblab chiqiladi:

$R_t = B_t + E_t$ (Jami moliyaviy resurs);

$U_t = \frac{E_t}{R_t} \times 100$ (byudjetdan tashqari tushum ulushi, %);

$FRS_t = \frac{R_t}{S_t}$ (bir talabaga to‘g‘ri keladigan moliyaviy resurs);

$FRP_t = \frac{R_t}{P_t}$ (bir professor-o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan moliyaviy resurs);

$K_t = \frac{R_t}{X_t}$ (xarajatlarni qoplash koeffitsienti);

$Q_t = \frac{A_t}{P_t}$ (qabul bosimi: bir professor-o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan qabul qilinganlar soni);

$C_t = \frac{X_t}{S_t}$ (bir talabaga to‘g‘ri keladigan xarajat);

$E_t^{(eff)} = \frac{G_t}{R_t}$ (1 mlrd so‘m resursga to‘g‘ri keladigan bitiruvchi natijaviyligi).

